

QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH, ERTA TURMUSH VA ERTA TUG`RUQNI OLDINI OLIISH`NI IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Yangiqo'rg'on tumani MMTB ga qarashli 27-sonli umumiy o'rta maktabi amaliyotchi psixologi
G'anixo'jayeva Guliruxsor Xakimjonovna*

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonamizning dolzarb muommosi erta turmush to'g'risida kerakli va muhim fikrlar keltirilgan. Barcha kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Erta turmush, erta tug'ruq, nikoh yoshi, turmush, jismoniy va jinsiy yetilish yoshi.....

Oila qurish, farzand tarbiyasi inson hayotida eng ma'suliyatli qadamlardan biridir. Mutaxassislarning fikricha, yoshlarning turmush qurish yoshi oila mustahkamligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ammo ayrim ota-onalar farzandlarining kelajagi, sog'ligini o'ylamay hali balog'at yoshiga yetmagan qizini uzatish harakatiga tushadi. Oqibatda esa Bugungi kunda tibbiyotchilar 16-17 yoshli qizlar turmushga tayyor emasligi, xomiladorlik va tug'ruq holatida qiynalib qolayotganini aytishmoqda. Har bir shifokor ko'rigiga borgan qizlarga 19-20 yoshlarida turmushga chiqishni, yigitlarga 20-22 yoshlarda uylanishni tavsiya qilishmoqda. Yoshlar rasmiy nikohdan o'tish uchun tuydan bir oy oldin joylardagi fuqorolik holati dalolatnomalarini yozish (FXDYO) idoralariga ariza topshiradi. Shunda ularga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma beriladi. Tibbiy ko'rik varaqasi to'ldirilgan holdagina fuqorolarning rasmiy nikohi qayd etiladi. Kelin kuyovlarni to'ydan oldin majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish talabi bejiz qo'yilmagan. Chunki yoshlar yashirin tarzda kechayotgan biror dardga chalinganini o'zi ham sezmay yurgan bolishi mumkin. Kamqonlik, yurak-qon tomir, buyrak xastaliklarini davolamay turib xomilador bo'lish nogiron bolalar tug'ilishiga olib kelishi hayotda ko'p bora isbotlangan. Xastaliklarni oila qurishdan avval davolash oson. Davlatimiz yaratayotgan bu kabi sharoitlar sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali oila mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan. Ammo erta turmush qurayotgan yigit-qizlar shifokor ko'rigidan o'tmasligi tayin. Oqibatda esa mobodo, irsiy kasalligi mavjud bo'lsa, ularning farzandlari xastalik bilan dunyoga keladilar. Yosh oilalar ajrimining asosiy qismi erta turmush qurish bilan bog'liq. Otaonalar bilan tushuntirish ishlarini olib boryabmiz. Tibbiy ko'rikdan o'tishda ham muammolar mavjud. Xorijda ishlab bir ikki so'm topib kelgan yoshi katta erkaklarga 16-17 yoshli qizlarini qo'rqmay

uzatayotgan ota-onalarning borligi kishini ajablatiradi. Yosh va dunyoqarashdagi tafovut ko'p holatda oilaning buzilishiga olib keladi. Biz nafaqat FXDYOga nikohdan o'tish uchun ariza topshirishga kelgan qizlar, balki maktablardagi yuqori sinf o'quvchilari va ularning ota-onalari bilan "Farzand tarbiyasida ota-onalarga ijtimoiy psixologik yordam ko'rsatish markazining ishchi guruh a'zolari bilan birgalikda suhbatlat o'tkazib kelyabmiz. Bu o'z natijasini bermoqda. Bu borada "O'quvchi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va erta turmush hamda erta tug'ruqni oldini olish" bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ham tuzib chiqqanmiz. Shu chora tadbirlar bo'yicha reja asosida qizlar majlisi, ota-onalar yig'ilishi hamda tuman Tibbiyot birlashmasi, tuman Xotin-qizlar qo'mitasi, tuman bosh imom xatibi bilan birgalikda uchrashuvlar, "Oila muqaddas dargoh," "Qizlarni erta turmushga berishning salbiy oqibatlari," "Sog'lom turmush tarsi," "Reproduktiv salomatlik," "OITSGa qarshi kurash" mavzularida suhbatlar olib bormoqdamiz. Bundan tashqari, maktabda sinf rahbarlari bilan birgalikda doimo janjal bo'lib turadigan oilalar, jinoyatga moyilligi bo'lgan o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbatlar o'tkazib kelmoqdamiz. O'tgan yili shu suhbatlar natijasida qizini erta turmushga bermoqchi bo'lgan 1 nafar oilaning fikri o'zgardi. Hozir o'sha qizlar ta'lim olishmoqda. Albatta, o'tkazilgan tadbirlar ijobiy natija bermoqda. Lekin shu o'rinda savol tug'iladi: oilalarda sog'lom muhitni mustahkamlash, qizlarni erta turmushga berishning oldini olish maqsadida xotin-qizlar qo'mitalari raislari, qishloq va mahalla fuqorolar yig'inlari faollari, maslahatchilar tomonidan joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarga qaramay, nega yuqoridagi kabi holatlar hamon davom etmoqda? Maktablarda qizlarga reproduktiv salomatlik, yoshlar uchun istalmagan xomiladorlik va konserptiv usullar haqida ko'proq ma'lumot va ta'lim berish etarli darajada emasliginibunga asosiy sabab sifatida ko'rsatish mumkin. Bo'lajak ona kelgusida farzand tarbiyasiga ham ma'sulligidan kelib chiqadigan bo'lsak, har bir qiz bola ma'lumotga ega bo'lishi, kasb egallashi, turli badiiy adabiyotlar muta'ola qilishi shart. Chunki bilimsiz, dunyoqarashi tor ona hech qachon o'z farzandini yetarli darajada tarbiyalay olmaydi shu bilan birgalikda ruhiyati ham sog'lom ayolgina sog'lom farzandlarni dunyoga keltiradi va ularni barkamol farzand qilib voyaga yetkazadilar. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sog'lom farzand sog'lom onadan duyoga keladi. Tug'ilajak nevaralarning baxtli va sog'lom bo'lishi, avvalo, ota-onalar qo'lida. Ana shunda oilalarimiz mustahkam bo'ladi, kishilarimizning hayoti baxtli saodatli bo'ladi. Shuni aslo unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oxiyev E. Ontagenez psixologiyasi. T. Sharq. 2008 y.
2. Aripova. S.M. Bo'rixo'jayeva H, S, Sog'lom avlodning tibbiy-ijtimoiy asoslari o'quv qo'llanma. "Fan va texnologiya". Toshkent-2016.

3.Mualliflar jamoasi.Xotin-qizlar ensiklopediyasi.”O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”.Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2012.

4.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Baxtiyor oila”,”Hilol – nashr”.Toshkent-2013.

5.Shoumarov.G`.B tahriri ostida”Oila psixologiyasi”SHARQ nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent 2008. BOLA PSIXOLOGIYASIDA O`YIN FAO

